



POMIDORNING SHTAMBSIMON BIRINCHI AVLOD DURAGAYLARINI O'RGANISH

Aramov Muzaffar Xoshimovich

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlantirish instituti

Ilmiy rahbar,;

Ziyabutdinova Maftuna Baxriddin qizi

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Magistrant:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8372430>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-September 2023 yil

Ma'qullandi: 20-September 2023 yil

Nashr qilindi: 23-September 2023 yil

KEY WORDS

Pomidor, shtambsimon, Agro, Perst, Chelnok, Revansh, Otradniy, Severyanka, Do'stlik, Utenok, Marjona, Taramata, Bahodir, Sug'diyona, L-31, birinchi avlod, duragay, kombinatsiya, serhosil, rentabellik.

ABSTRACT

So'nggi yillarda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, sabzavot mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish, qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, yer resurslaridan oqilona foydalanish, pomidorning kasallik va zararkunandalardan himoyalangan navlarini ishlab chiqish va mavjud navlarni ekib yetishtirishda tuproq, iqlim sharoitlarini inobatga olish, hosildorligini oshirish va eksportni ko'zda tutuvchi jahon standartlariga mos sabzavot yetishtirish maqsadida respublikamiz tuproq iqlimiga mos nav va duragaylarni to'g'ri tanlash va ko'paytirish, istiqbolli nav va duragaylarni ekib o'stirishda agrotexnik tadbirlarni ishlab chiqib amaliyotga tadbiiq qilishga erishilmoqda.

Dunyo bo'yicha bugungi kunda aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib bormoqda. Ayniqsa bugungi global pandemiya sharoitida vitamin va minerallarga boy, to'yimli, ekalogik toza mahsulotlarga talab ortmoqda. Dunyo sabzavotchiligidagi pomidor o'zining qimmatli va dietik xususiyatlari sababli butun jahonda eng keng yetishtiriladigan sabzavot ekinlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib pomidorning 1000 dan ortiq turli-tuman navlari yaratilgan bo'lib, ular ochiq va himoyalangan maydonlarda (masalan issiqxonalarda) yetishtirilmoqda. Dunyoda iqlimning keskin o'zgarib borayotganligi hisobiga yoz oylarida havo haroratining ortib borishi, nisbiy namlikning esa juda pasayib ketishi kuzatilmoqda. Shuningdek, kasallik va zararkunandalarning keng tarqalib borayotganligi sababli pomidorning biotik va abiotik stress faktorlarga chidamli yangi nav va duragaylarini yaratish zarurati kelib chiqmoqda. Shtambsimon tipidagi nav duragaylarni yaratish va ishlab chiqarishga joriy qilish, bu kabi muammolarni hal qilishda muhim o'rin tutadi. Pomidorning shtambsimon tur xili (*var. validum (Bailey) Brez*) ga mansub navlar poyasi tik o'suvchi, kuchli barglangan tashqi muhitning noqulay sharoitlariga, xususan issiqqa va qurg'oqchilikka ancha chidamliligi bilan ajralib turadi.

Mavzuning dolzarbligi Pomidorning shtambsimon birinchi avlod duragaylarini o'rganish, istiqbolli navlarni o'stirishni zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish va shtambsimon nav namunalaridan xo'jalik muhim belgilarni ajratib olish sabzavotchilik uchun

dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va uslubiyati

1-tajriba. Pomidorning shtambsimon birinchi avlod duragaylarini o'rganish. Tadqiqotlar obyekti bo'lib turli mintaqalardan keltirilgan 18 ta shtambsimon nav namunalari 10 shtambsimon birinchi avlod duragaylari, istiqbolli Bardam (L-31 liniyasi) navi xizmat qildi.

Tadqiqotlar ikki muddatda olib borildi. Birinchi muddatda urug'lar 10- yanvarda sepildi va ko'chatlar plyonkali qoplamalar ostiga 20 martda ko'chirib o'tkazildi. Ikkinchi muddatda urug'lar 12 fevralda sepildi va ko'chatlar 10 aprelda ochiq dalaga o'tkazildi.

Tadqiqotlar:

- Методические указания по изучению и поддержанию мировой коллекции овощных пасленовых культур (томаты, перцы, баклажаны)
 - Методические указания по селекции сортов и гибридов томата для открытого и защищенного грунта
 - Методические указания по экологическому испытанию овощных культур в открытом грунта
 - Методика полевого опыта
 - Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур
 - Руководство по апробации овощных культур и кормовых корнеплодов
- kabi uslub va uslubiy ko'rsatmalar asosida olib borildi.

Tajriba qaytariqsiz. Hisob bo'lmachasi maydoni 4,5 m². Bo'lmacha 2 qatorli. Bo'lmachada o'simliklar soni 20 ta. Ekish sxemasi 90x25 sm. Shtambsimon navlar uchun qiyosiy Do'stlik navi har 10 ta namunadan keyin standart sifatida foydalanildi. O'simliklarning amal davrida quyidagi fenologik kuzatuvlar olib borildi: urug'larning unib chiqishi, (10%, 75%); o'simliklarning gullashi, (10%, 75%); mevalarning pishishi, (10%, 75%);

Mevalar yoppasiga pishganda o'simliklar quyidagi belgilari bo'yicha tavsiflandi: asosiy poya uzunligi, sm; o'simlik tipi, barglanganligi (kuchsiz, o'rtacha, kuchli), o'simlik balandligi: pakana (30sm gacha), past bo'yli (31-50 sm), o'rta bo'yli (50-90 sm), baland bo'yli (91-150 sm), juda baland bo'yli (150 dan yuqori), mevaning shakli, indeksi (H/D)=i, mevaning vazni, g, mevaning rangi, hosildorlik va uning sifati.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlar 2022-2023 yillar mobaynida SPE va KITI Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasida olib borildi. Tajriba stansiyasi Surxondaryo viloyati Termiz tumanidagi Namuna SIU hududida joylashgan.

Shtambsimon nav namunalaridan xo'jalik muhim belgilar majmuasiga ega, serhosil, ertapishar (o'suv davri 93-97 kun) Agro, Perst, Chelnok, Revansh, Otradniy, Severyanka va o'rta va kechpishar (o'suv davri 104-123 kun) Surxon -142, Volgogradskiy 5/95, Do'stlik, Utenok, Marjona, Taramata, Bahodir, Sug'diyona, L-31 kabilar seleksiya ishlari uchun boshlang'ich manba sifatida ajratilgan;

shtambsimon birinchi avlod (F₁) duragaylari yaratilgan va turli muddatlarda baholangan, istiqbollilari ajratilgan. Shulardan F₁ Surxon -142 x Sevara, F₁ Sevara x Taramata, F₁ Do'stlik x L-31, F₁ Surxon -142 x Marjona, F₁ Surxon -142 x L-31, F₁ Do'stlik x Marjona, F₁ Volgogradskiy 5/95 x Marjona kombinatsiyalarida umumiy hosildorlik birinchi muddatda 72,0–83,0 t/ga ni, ikkinchi muddatda esa 57,2–71,6 t/ga ni tashkil etgan;

geterozis samarasi ushbu duragaylarda birinchi muddatda 131-160% ni, ikkinchi

muddatda esa 120–163% ni tashkil etgan;

quruq subtropik iqlim sharoitda pomidorning shtambsimon navlarini yetishtirishdan 83245-105709 ming so'm/ga, shtambsimon F₁ **duragaylarini** yetishtirishdan 127021-134317 ming so'm/ga, rentabellik darjasiga muvofiq ravishda: 73,5-85,8%; 94,9-97,6%; 69,8-103,0% ni tashkil etgan.

Eng qisqa "unib chiqish-gullash" davri (58-64 kun) birinchi muddatda Argo, Otradniy, Chelnok, Sug'diyona, Bahodir, L-31, Utenok, Alpatyeva 905^a, ikkinchi muddatda (57-63 kun) Argo, Perst, Chelnok, Revansh, Fonarik, Sevara navlarida kuzatildi.

1. "Gullash-mevalarning pishishi" davrining qisqaligi (41-45 kun) birinchi muddatda Perst, Chelnok, Revansh, Otradniy, Taramata, Sevara navlarida, ikkinchi muddatda (32-39 kun) Argo, Perst, Chelnok, Revansh, Otradniy, Severyanka, Sug'diyona, Bahodir, Alpatyeva 905^a, Taramata, Volgogradskiy 5/95, Surxon 142, Marjona, Do'stlik navlarida kuzatildi.

2. Eng qisqa o'suv davri (93-97 kun) Argo, Perst, Chelnok, Revansh, Otradniy, Severyanka navlarida kuzatildi va ular ertapishar navlar guruhiga kiritildi.

3. O'simlik balandligi bo'yicha o'rganilgan shtambsimon navlar quyidagi guruhlarga bo'lindi:

4. Determinant navlar (38-61 sm) - Perst, Chelnok, Severyanka, Revansh, Otradniy, Fonarik, Argo, Alpatyeva 905^a, Utenok, Sevara, Marjona, Bahodir;

5. Yarim determinant navlar (74-84 sm) - Surxon 142, Volgogradskiy 5/95, Taramata, Sug'diyona, Utenok.

6. Meva vazni bo'yicha o'rganilgan navlar 4 ta guruhga bo'lindi:

7. Mayda mevali navlar (30-60 g) - Perst, Chelnok, Sevara, Severyanka, Revansh, Otradniy, Alpatyeva 905^a, Marjona, Argo;

8. O'rta mevali navlar (60-100 g) - Sug'diyona, Argo, Utenok, Taramata, Sevara, Fonarik, L-31, Do'stlik;

9. Yirik mevali navlar (100 g dan ko'p) - Surxon 142, Volgogradskiy 5/95;

10. Juda yirik mevali nav (150 g dan ko'p) - Bahodir.

Xulosa.

Ekish muddatlari shtambsimon navlar hosildorligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Birinchi ekish muddatida hamma navlarda yuqori hosildorlik kuzatilgan. Har ikkala muddatda ham qiyosiy navga nisbatan yuqori hosil bergan Fonarik, Revansh, Utenok, Surxon 142 navlari ajratildi. Ular qiyosiy navga nisbatan birinchi muddatda 8-31%, ikkinchi muddatda 26-32% yuqori hosil bergan.

Ertagi hosildorlik bo'yicha ham Fonarik, Revansh, Utenok navlari qiyosiy navga nisbatan birinchi muddatda 14-47% va ikkinchi muddatda 15-47% yuqori ertagi hosil bergan.

Ilk marotaba 10 ta shtambsimon F₁ duragaylari yaratilib har tomonlama o'rganilgan. Birinchi avlod duragaylarida eng yuqori umumiy hosildorlik F₁Surxon 142 x Sevara, F₁Sevara x Taramata, F₁Do'stlik x L-31, F₁Surxon 142 x Marjona, F₁Surxon 142 x L-31, F₁Do'stlik x Marjona, F₁Volgogradskiy 5/95 x Marjona kombinatsiyalarida kuzatilgan. Ushbu duragaylarda umumiy hosildorlik birinchi muddatda 72,0-83,0 t/ga ni, ikkinchi muddatda esa 57,2-71,6 t/ga ni tashkil etgan. Geterozis samarasi ushbu duragaylarda birinchi muddatda 131-160% ni, ikkinchi muddatda esa 120-163% ni tashkil etgan. Shtambsimon pomidor tizmalarini baholash asosida istiqbolli L-40, L-47, L-48, L-49, L-50, L-56, L-59 kabilar ajratilgan.

Tanlov sinovi natijasida shtambsimon Bardam navi istiqbolli ekanligi aniqlangan. Uning

umumiy hosildorligi 57,5% ni tashkil etgan. Bu qiyosiy Surxon 142 naviga nisbatan 9,5% yuqori bo'lgan.

Shtambsimon navlarni yetishtirishdan 83245-105709 ming so'm/ga, shtambsimon F₁duragaylarni yetishtirishdan esa 127021-134317 ming so'm /ga iqtisodiy samara bergan. Eng muhim xo'jalik belgilarni o'zida mujassamlashtirgan Fonarik, Revansh, Utenok, Surxon 142 navlari shtambsimon nav va duragaylar yaratishda qimmatli boshlang'ich manba bo'lib xizmat qiladi. Yangi yaratilgan Marjona, Taramata, Sug'diyona, Bardam navlari va L-40, L-47, L-48, L-49, L-50, L-56, L-59 tizmalari mevalari transportbop, o'simligi g'uj joylashgan va pomidorni yetishtirish bilan bog'liq agrotexnik tadbirlarni to'la mexanizatsiyalashtirish imkonini beradigan nav va duragaylar yaratishda boshlang'ich manba sifatida tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Авдеев Ю.И. Селекция томатов. – Кишинев: Штиинца, 1982. – 284 с.
2. Алпатьев А.В. Основные направления селекции томата на ближайшую перспективу.//Науч. Тр. ВНИИССОК. по селекции овощных культур. – М, -1978. Вып. 8.- С.-11-16.
3. Алпатьев А.В. Помидоры. М., “Московский рабочий”, - 1981. – 302 с.
4. Андреева Н.Н. Характеристика новых сортов томата для Западной Сибири. В сб.: Селекция и семеноводство овощных культур в ХХИ веке. М., 2000. Том II. – 96 с.
5. Велижанов Н.М. Результаты испытаний новых штамбовых сортов томата в условиях Республики Дагестан//Аграрный научный журнал. – 2019. №7. – С. 4-6.

INNOVATIVE
ACADEMY